

TA'LIMDA KOMMUNIKATIV VA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Djurayeva Muxlisa Shadiyarovna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: mukhlisa281087@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda yurtimizda ta'lif dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi metodikalarni joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada biz kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetentlikka oid materiallarni tahlil qilamiz hamda turli madaniy vaziyatlarda tildan tabiiy ravishda foydalana oladigan, ravon va aniq so'zlashuvchi bo'lish uchun chet tili va madaniyatini o'rganishning salmoqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, chet tili va madaniyati.

Hozirgi kunda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish butun dunyo bo'ylab dolzarb ehtiyojga aylandi. Shubhasiz, bu til katta ahamiyatga ega va dunyo bo'ylab barcha mamlakatlar o'rtaida aloqa vositasi sifatida o'z o'rnini topdi. So'nggi yillarda ta'linda kommunikativ kompetensiya tushunchasi yangilik emas, aksincha, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish har bir darsning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi deyish mumkin. Endilikda til o'rganuvchi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish madaniyatlararo muloqotga kirishishda asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oxirgi o'n yillikda hukumatimiz global muammolarga javoban ta'lif tizimida sezilarli o'zgarishlar qilishga harakat qilib, sifatli ta'lif va zamonaviy metodlar orqali ingliz tilini o'qitish, ta'lif tizimini modernizatsiya qilish va unga innovatsion yangiliklarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-5117-sonli qarorga muvofiq, milliy yoki xalqaro testlar bo'yicha C1 darajasidagi sertifikatga ega bo'lgan xorijiy til o'qituvchilari o'z oylik maoshlariga 50 foiz miqdorida ustama olish huquqiga ega [1]. Shuningdek, "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"da [2] "Oliy ta'lif sifatini oshirish" belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to‘g“risida”gi farmoniga muvofiq, oliv ta’limni modernizatsiya qilish, ilg“or ta’lim texnologiyalari asosida ijtimoiy sohani va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimga ega, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatli, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliv ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsad qilingan [3].

Chet tilini o‘qitishning eng muhim maqsadi - kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Bu kompetensiya lingvistik, pragmatik kompetensiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ham o‘z ichiga oladi, chunki o‘rganilayotgan tilning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bilmasdan turib, kommunikativ kompetensiyani shakllantirib bo‘lmaydi.

Kommunikativ kompetentlik – bu murakkab kommunikativ ko‘nikmalar va malakalarga egalik, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat ko‘nikmalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy normalar va cheklovlarini bilish, muloqot sohasidagi urf-odatlar, an'analar, odob-axloq qoidalarini bilish, andishalikka rioya qilish, tarbiyalilik, milliy, tabaqaviy mentalitetga xos bo‘lgan va ushbu kasb doirasida ifodalangan kommunikativ vositalarda yo‘nalish olishdir [10].

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi shaxsning samaradorlik va maqbullik nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatiga ishora qiladi. Bu tushuncha tilning mohiyati haqidagi bahslar bilan bog‘liq bo‘lib, Amerikalik olim Del Xayms tomonidan N. Chomskiyning lingvistik kompetensiya taklifiga qarshi tushuncha sifatida ishlab chiqilgan. Del Xaymsga ko‘ra, bu kompetensiya turli ijtimoiy kontekstlarga muvofiq muloqot qilish uchun so‘zlovchilar va tinglovchilarda mavjud bo‘lgan bilimlarni tasvirlash va hisobga olishdir [6]. Bu sotsiolingvistika va tilni o‘rganishga yo‘naltirilgan boshqa ijtimoiy yondashuvlardagi asosiy tushunchadir. Dastlab N. Chomskiyning ishlarida paydo bo‘lgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi dastlab quyidagicha ta’riflangan: "...ideal so‘zlovchi va tinglovchining ichki grammatikasi vazifasini bajaruvchi til qoidalarining aqliy tasvirlari" [4]. Vaqt o‘tishi bilan u kengaytirildi va farqlandi. Odamlarning "ona tilida so‘zlashuvchilar rioya qiladigan lingvistik va ijtimoiy qoidalarni hisobga olgan holda, ijtimoiy jihatdan belgilangan turli vaziyatlarda chet tilidagi ifodalarni tushunish, yaratish" qobiliyatini nazarda tutuvchi kommunikativ kompetensiya elementlari [5] lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, sotsiokultural va strategik kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi [9].

A.V. Xutorskiyning tadqiqotlari bizni ijtimoiy-madaniy kompetensiya umumiyligi madaniy kompetensiyaning elementlaridan biri ekanligiga ishontiradi. [7] Ushbu nuqtai nazarni hisobga olgan holda, biz ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ijtimoiy va mehnat munosabatlari, axloqiy va fuqarolik munosabatlari, oila, kundalik hayot, ishlab chiqarish va madaniy sohalardagi kompetensiyani faoliyatga asoslangan shakli sifatida qaraymiz.

Ushbu kompetensiya ijtimoiy va madaniy xususiyatlar haqida chuqur va tizimli bilimga ega bo‘lishni, jamiyatda umumiyligi qabul qilingan normalar bilan

xatti-harakatlarni tartibga solishni, urf-odat va an'analarni hisobga olgan holda madaniy va an'anaviy o'zaro ta'sir qoidalarini amalga oshirish qobiliyatini, ijtimoiy normativ o'zaro ta'sirni amalga oshirishni, ijtimoiy va professional faoliyatda hamkorlik qilishni nazarda tutadi [8].

Talabalarni o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish, ularning real hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqotga erishishlariga va madaniy bilimdonliklarini yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Quyida bu borada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategiyalar va usullarni ko'rib chiqamiz.

1. Kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish uchun:

Interaktiv darslar o'tish: Munozaralar, bahslar, rolli o'yinlar, guruhli loyihalar kabi interaktiv metodlardan foydalanish; talabalarni fikrlarini erkin ifoda etishga undash va ularning fikrlarini hurmat qilish.

Real hayotiy vaziyatlar yaratish: Talabalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lgan topshiriqlar bilan ta'minlash (masalan, ish intervysi, muzokaralar, taqdimotlar);

Simulyatsiyalar va keys-stadilar orqali talabalarni turli xil kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash;

Fikr-mulohaza (Feedback): Talabalarga ularning kommunikativ ko'nikmalarini bo'yicha doimiy ravishda fikr-mulohaza berish;

Ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam berish va ularni yaxshilash uchun maslahatlar berish;

Texnologiyalardan foydalanish: Onlayn forumlar, video konferensiylar, podkastlar va boshqa texnologik vositalar orqali talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;

Ijtimoiy media platformalaridan foydalanib, talabalar o'rtasida muloqotni rag'batlantirish.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani takomillashtirish uchun:

Madaniyatlararo ta'lim: Turli madaniyatlar haqida ma'lumot berish, ularning qadriyatlari, urf-odatlari va an'analarini o'rgatish;

Madaniyatlararo farqlarni hurmat qilish va ularga bag'rikeng bo'lishga o'rgatish;

Madaniy tadbirlar: Talabalarni madaniy tadbirlarga (konsertlar, teatrlar, muzeylar) tashrif buyurishga undash;

Turli madaniy guruhlar bilan uchrashuvlar tashkil etish va ularning tajribalari bilan tanishishga imkon yaratish;

Chet tilini o'rganish: Chet tilini o'rganish orqali talabalarning boshqa madaniyatlar haqidagi tushunchalarini kengaytirish;

Til o'rganish orqali talabalarni boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga tayyorlash;

Global loyihalar: Talabalarni xalqaro loyihalarda ishtiroy etishga undash, bu ularga turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi;

Virtual almashinuv dasturlari orqali talabalarni boshqa mamlakatlardagi talabalar bilan muloqotini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-madaniy jihatdan kompetent bo‘lgan inson nafaqat madaniyat haqida keng bilimga ega bo‘ladi, balki turli madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirisha oladi. O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitishning zamonaviy usullarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish eng muhim siyosatlardan biriga aylanganligi sababli, talabalarni real hayotiy vaziyatlarda kommunikativ jihatdan yetuk bo‘lishga, o‘zga til madaniyati, qadriyatlarini, e’tiqodlari va xulq-atvor qoidalarini bilishga va erkin muloqot qila olishga tayyorlash muhim sanaladi. Shu munosabat bilan biz maqolada talabalarning kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlarini yoritib o‘tdik.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Chomsky, N. (2002). Syntactic Structures. Second edition (First edition published in 1957, Berlin - New York: Mouton de Gruyter.).
5. Gal’skova N. D. (2003). Sovremennaya metodika obucheniya inostrannym yazykam: Posobiye dlya uchitelya. Moskva: ARKI, 189s.
6. Hymes D.H. (1972). ‘On communicative competence.’ In Pride J B & Holmes J (eds.) Sociolinguistics. Harmondsworth:Penguin. 269–293p
7. Khutorskoy A. V. (2003). Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigm / A. V. Khutorskoy // Narodnoye obrazovaniye. № 2. 58–64s.
8. Levitskaya I. A. (2011). Formirovaniye sotsiokul’turnoy kompetentsii studentov: na materiale tekhnicheskogo universiteta: avtoreferat dis. Novokuznetsk, 24 s.
9. Shatunova O., Anisimova T., Sabirova F., & Kalimullina O. (2019). STEAM as an Innovative Educational Technology. Journal of Social Studies Education Research. Vol. 10 (2), 131- 144p.
10. <https://ru.wikipedia.org>.